

nav bilan bir xil yani 57 kunda gulga kirganligi aniqlandi.

G'ozaning 50 % pishishi taxlil qilinganda, andoza Surxon-14 naviga nisbatan L-96, L-205, L-128 tizmalar 1-1,3 kunga erta pishib yetilganligi aniqlandi.

Xulosa shuki, ingichka tolali navlar ekstrimal ob-havo

sharoitlariga, suvsizlik va garmisel, zararkunanda hasharotlarga chidamliligi, etarpisharligi bilan ahamiyatli. Tolasining uzunligi, pishiqiligi va tekstilbopligi bilan jahon bozorida xaridorgir. Boshqa navlar bilan mehnat va resurs sarfi bir xil bo'lgani holda ingichka tolaning iqtisodiy samaradorligi 60 foizga ko'proq bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev A.A., Klyat V.P., Rizaeva S.M., Ernazarova Z.A., Kuryazov Z.B., Arslanov D.M. G'ozaning yovvoyi ajdodlarining potentsiali va ularning madaniy navlarni yaratishdagi imkoniyatlari. //O'zbekiston biologiya jurnali. –Toshkent, 2006. -№6. -B.63-69.
2. B.Amanturdiyev, M.Kruma. G'ozaning G.hirsutumL. va G.barbadenseL. turlariga mansub navlar o'rtasidagi F1 geterozislik xossasini o'rganish //O'zG'SUITI ning ilmiy asarlar to'plami. –Toshkent, 1993. –B.15-19.
3. Nomozov SH., Siddiqov A. Genetik jihatdan kelib chiqishi turlicha bo'lgan g'ozalarni chatishtirishda asosiy xo'jalik belgilarining irsiylanishi. //O'zG'SUITI ning ilmiy asarlar to'plami. –Toshkent, 2002. – B. 143-145.
4. Saydaliev X., Mamaraximov B., Xalikova M. G'ozaning turlararo duragaylaridagi belgilarning shakllanishiga takroriy chatishtirishning ta'siri. –Toshkent, 2015. -96 b.
5. Karshieva U. S. H. STUDIES OF VARIETIES AND VARIETALS OF WINTER SOFT WHEAT BY STEM HEIGHT AND LODGING RESISTANCE //Journal of Modern Educational Achievements. 2023. – T. 5. – №. 5. – S. 83-88.

UO'T: 633.51:631.542.25

INGICHKA TOLALI G'O'ZA NAVINING HOSILDORLIGIGA DEFOLIANTLARNING TA'SIRI

Kodirov Axmadjon Abduraufovich, q.x.f.f.d., (PhD),

TAIRI O'simlikshunoslik, dorivor o'simliklar va manzarali bog'dorchilik kafedrasini mudiri.

Annotatsiya. Surxondaryo viloyatining o'tloqlashib borayotgan taqirsimon tuproqlar sharoitida ingichka tolali g'o'za ko'saklarini ochish uchun Suyuq-XMD 8,0-9,0 l/ga va UzDEF-7,0-8,0 l/ga me'yorida defoliantdan foydalanildi. G'o'zaning ingichka tolali "Termiz-202" navining ko'saklari 30-40% va 40-50% ochilganda va bargining to'kilishiga qarab paxta hosildorligi o'rtacha 34,6-35,2 s/ga va 34,8-35,9 s/ga tashkil etganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ingichka tolali "Termiz-202" g'o'za navi, Suyuq-XMD, O'zDEF, defoliant, ko'saklar ochilishi, hosil.

Аннотация. В условиях такыровидных почвах признаками олуговения Сурхандарьинской области применение дефолианта Жидкий ХМД нормой 8,0-9,0 л/га и УзДЕФ нормой 7,0-8,0 л/га при раскрытии коробочек 30-40% и 40-50% на тонковолокнистом сорте хлопчатника Термиз-202 в зависимости от оподения листьев и раскрытия коробочек урожай хлопка-сырца в среднем составил 34,6-35,2 ц/га и 34,8-35,9 ц/га.

Ключевые слова: Тонковолокнистый сорт хлопчатника "Термиз-202", Жидкий-ХМД, УзДЕФ, дефолиант, раскрытие коробочек, урожай.

Abstract. In the conditions of takyr-like soils with signs of alluvial growth in the Surkhandarya region, the use of defoliant Liquid KMD with a rate of 8.0-9.0 l / ha and UzDEF with a rate of 7.0-8.0 l / ha for opening of bolls of 30-40% and 40-50% on fine-fiber cotton variety Termiz-202, depending on leaf maturation and opening of bolls, the yield of raw cotton averaged 34.6-35.2 c / ha and 34.8-35.9 c / ha.

Keywords: fine-staple cotton variety "Termiz-202", Liquid-KMD, UzDEF, defoliant, opening of bolls, harvest.

Respublikamiz paxta maydonlarida asosan Suyuq-XMD, Super-XMD, O'zDEF, Avguron-ekstra, Ento-defol, defoliantlaridan foydalanib, sun'iy bargsizlantirib kelinmoqda. Biroq, shuni ham e'tirof etish kerakki, har bir yangi ingichka tolali g'o'za navida ushbu defoliantlarning maqbul me'yori va muddatlarini ishlab chiqish kerak. Sababi, defoliantlar qachonki maqbul me'yordalarda qo'llanilsagina, uning samaradorligi yuqori bo'ladi. Shu nuqtai-nazardan ingichka tolali "Termiz-202" g'o'za navida Suyuq-XMD va O'zDEF defoliantlarini turli me'yordalarda qo'llab, ularni maqbul muddat va me'yorlarini aniqlash bo'yicha 2018-2020 yillarda ilmiy-tadqiqotlar olib bordik.

G'o'za defoliatsiyasi sifatli, maqbul me'yori va muddatlarda o'tkazilsa, g'o'za barglari to'kilibgina qolmay, balki qator oralaridagi havo aeratsiyasi yaxshilanib, ko'saklar samarali haroratdan ko'proq foydalanadi va pishib yetilishi erta bo'lishi hisobiga hosil salmog'i va sifati ortadi. Qolaversa, xalqimiz rizqi hisoblangan g'allani maqbul muddatlarda ekish imoni yaratiladi [1,2,3].

Tajribalar PSUEAITI ning Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi tajriba xo'jalik dalalarida olib borildi. Tajriba uslubiy qo'llanmasiga (Dala tajribalarini o'tkazish uslublari, O'zPITI 2007 y) asosan o'tkazilib, Suyuq-XMD (8,0-9,0-10,0 l/ga) hamda O'zDEF (7,0-8,0-9,0 l/ga) defoliant-larining turli me'yorlari ingichka tolali "Termiz-202" g'o'za navining ko'saklari 30-40% va 40-50% ochilgan muddatlarda qo'llanildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tajriba o'tkazilgan yillarda defoliantlarning barglar to'kilishi, ko'saklar ochilishi va paxta hosildorligiga ta'siri o'rganilganda, qolgan (2019-2020) yillarda ham bir-biriga yaqin qonuniyat kuzatilganligi sababli, 2018-yilgi ma'lumotlar keltirildi.

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, defoliatsiyadan oldin o'simlikning biologik holati aniqlanib, 1-muddatda o'simlikning bo'yi 106,0 sm. ni, yashil barglar soni 20,3 ko'saklar soni 18,4 donani va shundan ochilganlari 35,7% ni, 2-muddatda esa o'simlikni bo'yi 105,7 sm. ni, yashil barglar soni 21,6 donani,

ko'saklar soni 21,8 donani va shundan ochilganlari 49,2% ni tashkil etib, belgilangan muddatlarga mos kelganligi ma'lum bo'ldi.

Suyuq-XMD hamda O'zDEF defoliantining g'o'za barg to'kilishi va ko'saklar ochilishiga ta'siri o'rganilganda, 1-muddatda (ko'saklar 30-40% ochilganda) Suyuq-XMD defolianti 8,0 l/ga, O'zDEF defolianti 7,0 l/ga me'yorda, 2-muddatda (ko'saklar 40-50% ochilganda) esa Suyuq-XMD defolianti 9,0 l/ga, O'zDEF defolianti 8,0 l/ga me'yorda qo'llanilganda boshqa variantlarga nisbatan samarasi yuqoriroq bo'lganligi kuzatildi. Ya'ni, 1-muddatda defoliatsiyadan 14 kundan so'ng to'kilgan barglar soni Suyuq-XMD 8,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 90,2% ni, ko'saklar ochilishi 83,2% ni tashkil etgan bo'lsa, O'zDEF 7,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 90,8-84,1% bo'lgani kuzatildi. Shuningdek, 2-muddatda Suyuq-XMD 9,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda to'kilgan barglar 89,3% ni, ko'saklar ochilishi 91,2% ni tashkil etib, O'zDEF 8,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda yuqori bo'lib, to'kilgan barglar

90,2% ni, ochilgan ko'saklar 91,8% ni tashkil etdi. Ushbu defoliant qo'llanilganda barg to'kilishi biroz yuqoriligi aniqlandi [4].

Defoliantlarning "Termiz-202" g'o'za navi hosildorligiga ta'siri aniqlanganda, 1-muddatda defoliatsiya o'tkazilganda (Suyuq-XMD-8,0 va O'zDEF-7,0 l/ga) hosildorlik o'rtacha 34,6-35,2 s/ga ni tashkil etib, nazoratga nisbatan 1,2-1,8 s/ga qo'shimcha hosil olingani aniqlandi. 2-muddatda Suyuq-XMD-8,0 va O'zDEF-7,0 l/ga me'yorda defoliantalar qo'llanilgan variantlarda paxta hosili 34,8-35,9 s/ga ni tashkil qilib, qo'shimchasi esa 1,3-2,0 s/ga ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining taqirsimon tuproqlari sharoitida parvarishlanayotgan ingichka tolali "Termiz-202" g'o'za navidan yuqori va sifatli paxta xomashyosi terib olish uchun, g'o'za ko'saklari 30-40% ochilgan muddatda Suyuq-XMD defoliantini 8,0 l/ga va O'zDEF defoliantini esa 7,0 l/ga me'yorda, g'o'za ko'saklari 40-50% ochilgan muddatda Suyuq-XMD-9,0 l/ga hamda O'zDEF-8,0 l/ga me'yorlari eng maqbul bo'lganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Зокиров Т.С. Химическая дефолиация и десикация хлопчатника. Ташкент. "Узбекистан", 1968. С. 309.
2. Имомалиев А.И. Дефолианты и их физиологические действия на хлопчатник. Ташкент. "Фан", 1969. С. 307.
3. To'rayev U.A. Defoliantlar sardori. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi". Toshkent, 2000 y, №4. B-21.
4. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. O'zPITI. Toshkent, 2007 y, B-87-90.

УЎТ: 632.632.9.632.95

ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗА НИҲОЛЛАРИДА ҚОРА ИЛДИЗ ЧИРИШ КАСАЛЛИГИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА ҲИМОЯ ЧОРАЛАРИ

Донабаев Абдумурод Бердиевич, к.х.ф.н., катта илмий ходим, ИТПТИ,
Абдурахимов Нурали Нормаматович, доцент, ТАИРИ.

Аннотация. Ушбу мақолада республикамизнинг жанубий минтақаси кескин континентал иқлим шароитида ингичка толали ғўза навларида қора илдиз чириш касаллиги ва унинг ўсимлик ўсиши, ривожланиши, ҳосил элементларининг шаклланишига таъсири бўйича тадқиқотлар ўтказилган. Шунингдек қўлланиладиган агротехник тадбирларни тўғри ва мақбул мuddатларда ўтказишнинг юқори ҳосил тўпланишидаги самарадорлиги ўрганилган.

Калим сўзлар: ғўза, истиқболли, нав, ингичка толали, ўсимлик, илдиз, тизим, озуқа, бўйи, вегетатив, генератив, ҳосил элементлари, шона, гул, қўсак, тўкилиш, ҳарорат, гармсел, нисбий намлик, меъёр, ҳосилдорлик.

Abstract. This article conducts research into the disease black root rot and its effect on the growth, development and formation of crop elements in fine-fiber cotton varieties under the harsh continental climate of the southern region of our republic. The effectiveness of carrying out agrotechnical measures in the correct and acceptable time frame during the high harvest period has also been studied.

Keywords. Cotton, promising, variety, fine fiber, plant, root, system, nutrient, height, vegetative, generative, yield elements, boll, flower, boll, shedding, temperature, mint, relative humidity, norm, yield.

Абстрактный. В данной статье проведены исследования болезни черной корневой гнили и ее влияния на рост, развитие и формирование элементов урожая у тонковолокнистых сортов хлопчатника в условиях сурового континентального климата южного региона нашей республики. Также изучена эффективность проведения агротехнических мероприятий в правильные и приемлемые сроки в период высокого урожая.

Ключевые слова: хлопок, перспективный, сорт, тонкое волокно, растение, корень, система, питательное вещество, высота, вегетативный, генеративный, элементы урожайности, коробочка, цветок, коробочка, осыпание, температура, мят, относительная влажность, норма, урожайность.

Кириш. Қора илдиз чириш ғўзанинг кенг тарқалган хавфли касалликларидан бири ҳисобланади. Касалликни тупроқ микроорганизмлари (замбруғ, бактерия ва нематодалар) қўзғатади. Баҳорда серёгин ва совуқ кунлар сурункали давом этганда касаллик пайдо бўлиб авж олади, оғир ва ўтлоқ тупроқларда ниҳолларнинг 90% гача касаланиши кузатилади. Баҳор серёгин келган йилларда униб чиққан ниҳол илдиз-

ларининг қорайиб чириши боис чигитни қайта экишга тўғри келади. Баҳорда узоқ мuddат ҳароратнинг 10°C дан тушиб кетиши, тупроқ ва ҳавода намлигининг юқори бўлиб туриши ниҳолларнинг ривожланишини сусайиб кетиши ва касалликка чалинишига олиб келади. Шунингдек ер етилмасдан экишга тайёрлаш ва экиш вақтида лой тупроқнинг зичлашиб, тепкиланиб қолиши натижасида, чигит ҳаддан ташқари чуқур экил-